

“QUYOSH MASKANI” DOSTONI – ISTIQLOL ISTAGAN KO’NGIL IZHORI

Ravshanova Madina Zafarbek qizi
University of Business and Science
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Quyosh maskani” dostonida istiqlol g‘oyasining badiiy ifodasi, milliy ozodlik va erk tushunchalarining poetik talqini tahlil qilinadi. Dostonda insonning erkinlikka intilishi, milliy o‘zlikni anglash, Vatan va xalq taqdiri bilan bog‘liq kechinmalar hamda ozod hayot haqidagi orzu-istaklarning badiiy ifodalanishiga alohida e‘tibor qaratiladi. Asardagi quyosh, yorug‘lik, maskan, yo‘l, Vatan kabi obraz va ramzlarning istiqlol g‘oyasini ifodalashdagi semantik-poetik imkoniyatlari ochib beriladi. Shuningdek, lirik qahramon ruhiyati orqali milliy uyg‘onish, ozodlikka intilish va kelajakka ishonch motivlarining yoritilishi tadqiq etiladi. Tadqiqot natijasida “Quyosh maskani” dostoni istiqlol istagini bevosita siyosiy shiorlar orqali emas, balki inson qalbidagi erkinlik ehtiyoji, milliy ruh va yorug‘ kelajak haqidagi orzular vositasida poetik ifodalovchi asar sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: “Quyosh maskani”, doston, istiqlol, milliy ozodlik, erkinlik, milliy ruh, milliy o‘zlik, Vatan, lirik qahramon, quyosh obrazi, ramz, poetik talqin, istiqlol g‘oyasi.

Abstract. This article analyzes the artistic representation of the idea of independence in the epic poem *Quyosh Maskani*, focusing on the poetic interpretation of national freedom, liberty, and the desire for independence. Particular attention is paid to the individual’s aspiration for freedom, awareness of national identity, emotional experiences associated with the destiny of the homeland and the people, and dreams of a free and prosperous future. The semantic and poetic functions of such images and symbols as the sun, light, homeland, dwelling, and journey in expressing the idea of independence are examined. The study also explores the motifs of national awakening, the desire for freedom, and hope for the future as reflected through the lyrical hero’s inner world. The research demonstrates that *Quyosh Maskani* expresses the aspiration for independence not merely through direct political statements, but primarily through the individual’s inner need for freedom, national consciousness, spiritual awakening, and dreams of a bright future.

Keywords: *Quyosh Maskani*, epic poem, independence, national freedom, liberty, national spirit, national identity, homeland, lyrical hero, image of the sun, symbol, poetic interpretation, idea of independence.

Vatan ozodligi - xalq farovonligi, xalq farovonligi - ko'ngil shodligidir. Yurtimizning bugungi kundagi hur va farovon hayotini ne-ne insonlar orzu qilib, uning ozodligi yo'lida jonlarini fido qilishdi. Vatanimiz qariyb yetmish yil davomida sho'ro hukumatining tazyiqi ostida yashab keldi. Bu davr mobaynida Sobiq sovet hukumati xalqimizni o'z ma'naviyati, milliy qadriyatlari, dini hamda urf-odatlaridan ayri holda yashashga mahkum etdi. Xalq ichidan chiqqan hur fikrli insonlarni esa "Xalq dushmani" sifatida qatag'on qildi. Ularning ko'pchiligi ana shu qatag'on qurbonlariga aylandilar. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir kabi xalqimizning asl o'g'lonlarining ayanchli qismati bunga yorqin dalildir. Sho'ro davridagi qatag'on siyosati 1953-yilda Stalin vafot etgandan so'nggina yakun topdi. Ammo bu o'sha davrdagi siyosiy tuzum haqida erkin fikrlash imkoni berildi degani emas edi. Shoir Erkin Vohidovning she'riyatga, umuman, adabiyotga qadam qo'yishi ayni shu yillarga to'g'ri keldi.

"... Hali G'afur G'ulom, Oybek, Mirtemir, Shayxzoda,. Sobir Abdulla, Uyg'un, Zulfiya, Saida Zunnunova singari o'zbekning she'r orkestrlari yangrab turganda, ularning na'rali ovozlari ichidan yosh Erkin Vohidov nayi ham sas tarataboshladi. Va bu nay tovushi eshitilmay qolmadi. Uni hamma eshitdi va birdan berilib tingladi".[1.5]

Men jilg'aman,

Daryo bo' lib to' lgim keladi.

Ona yurtim,

Senga o'g'lon bo'lgim keladi.

Bugun senga

Faqatgina she'r bag'ishladim,

Kerak bo'lsa,

Jonni fido qilgim keladi.[2.19]

Bu misralar endigina o'n yetti yoshni qarshilagan iqtidor egasining ko'ngil torlaridan taralayotgan xalqona kuy. Unda Ona vatanga sadoqat izhor qilish ishtiyoqi bilan yonayotgan yosh shoir qalbining sof, musaffo tuyg'ulari ifodalagan. Erkin Vohidov o'zining vatanparvarlik burchini juda chuqur his qiladi va anglaydi. Bu juda yoshlikda uning qoniga singgan. U hayotda qanday bo'lsa, she'ri va dostonlarida ham xuddi shunday Vatanni vatan qilgan otalarning ulkan ijtimoiy ishiga sadoqat uning lirik qahramonini estetik jihatdan g'oyatda faol shaxsga aylantiradi.

Shoirning 60-yillarda yozilgan "Nido" hamda 70-yillarda yozilgan "Quyosh maskani" dostonlarida ana shu xususiyatlar mujassamlashgan. U shoir sifatida o'z Ona vatanini ozod va obod ko'rishni istaydi.

Samoni bulut qoplab, quyosh nurini to'sib qo'ysada, u o'z shuurlari bilan yer yuzini yoritgani kabi Erkin Vohidov qalbidagi Vatan ozodligi va mustaqilligiga bo'lgan ishonch

sobiq Sovet davrida bir lahzaga bo'lsada, susaygani yo'q, aksincha, undagi umid hissi asardan asarga sayin o'sib bordi.

Keksa qayrag'ochning
Ildizin ochib,
Tortdilar qo'sh arqon solib belidan.
Lekin u tuproqqa panjasin sanchib,
Sira qo'zg'almasi
Ungan yeridan...
Nihoyat gurs etib yerga quladi,
Butab, so'ng ko'tarib ketdilar, biroq -
U o'z panasiga olib jo'nadi.
Yashagan yeridan
Bir siqim tuproq.

Shoir ushbu she'rida Vatan tuprog'ini, nafaqat, insonga, balki butun bir nabotot olami uchun ham naqadar qadrlil va muqaddas ekanini oddiygina hayotiy-haqiqat orqali o'quvchi qalbiga singdirishga harakat qilgan va bunga erisha olgan, albatta.

Erkin Vohidov ko'nglidagi vatanparvarlik hissi uning she'r-u dostonlariga ko'chgan. Shoirning "Quyosh maskani" dostonida Vatanni ozod ko'rishni xohlagan haqiqiy o'g'lonlarning chin ko'ngil izhori yangradi.

Hov ana, U yerda tugaydi o'rmon,
Davomi tutashdir, poyonsiz cho'lga,
Cho'l orti men uchun eng aziz makon.
Ne ajab,
U tomon boqdim daf atan,
Vujudimni tortdi bir ohangrabo.
Ot ham ko'tarilar o'sha tarafdin,
O'sha yurt ustida porlaydi Zuhro.[2.359]

Mana, shoir qalbidan kechgan hislar inkosi. Unda Vatan ozodligi-yu obodligi g'oyalari mujassam.

O'zbekiston... Ne-ne olim-u fozillarni jahon ahliga qo'sh qo'llab tutqazgan muqaddas diyor. Uning boshidan shoir misralarida porlagan Zuhro bugun ozodlik va obodlik mash'aliga aylanib, pok ko'ngillarni yog'dulantirayotgan bo'lsa ne ajab. o'sha davrdagi ijtimoiy muhit hamda siyosiy tuzumda bu kabi gapni aytish shoir uchun oson bo'lgan emas.

Fuzuliy devonin qo'limga oldim,

U soldi ko'nglimga g'azal mehrini...

Ko'p zahmat so'ngida

Anglab yetdim,

Ustoz Alisherning buyuk sehrini.

Uni tanidimu elimni bildim,

Mahkamroq turganday bo'ldim zaminda.

Barcha shavq-u otash shu bois menda.[2.361]

Ushbu misralarda ajdodlar merosiga nazar solish, unga mehr-muhabbat qo'yish va shu orqali Vatan tuyg'usini yanada chuqurroq tuyish va his qilish g'oyalari ilgari surilgan.

Paxta...

U sevgidek mavzudir o'lmas,

U ilhom chashmasi - mangu buloqdir.

Ammo u chamanning ko'ksida gulmas,

Yerning kaftidagi oq po'rsildoqdir.[2.362]

O'zbek xalqi mehnatkash xalq. U mana shu mehr-u muhabbatini o'z bolasidan ko'proq dalasiga berganiga butun bir tarix guvoh. Vaholanki, sobiq sovet tuzumi davrida shuncha mehnat mashaqqat evaziga "paxta ishi - o'zbek ishi" degan haqoratli gaplar eshitdi xolos.

U jon rishtasidan yaralgan samar,

Chanoqqa jo bo'lgan hovuch to'la nur.

U manglay teridan yetilgan gavhar,

U nuri diydadan bino bo'lgan dur.

Shu dur bilan to'ldi

O'lkamning qo'yni,

Javohir koniga aylandi bu kun.

Ona xalqim !

Tarix yelkangga qo'ydi.

Million tonnalarning zaminday yukin.[2.363]

Ushbu doston yaratilgan davrda xalqimiz hamon paxta siyosatining og'ir mashaqqatlarini boshidan kechirar edi. Shoir qishloq farzandi bo'lganligi uchun unga bu dard-alamlar ham begona emas edi. Shuning uchun u ushbu misralari bilan jafodiyda xalqiga hamdardlik izhor qildi. Uning dardini o'z dardi, o'z tashvishi deb bildi. Yurtimizda xalqimiz mehnatidan bino bo'lgan million tonnalik xirmonlar sovet markaziga olib ketilar va xalqimiz ushbu boylikdan bebahra qolar edi. Sobiq sovet hukumati o'lkamizni xom ashyo manbaiga aylantirgani va bunda xalq kuchidan keragidan ortiq darajada foydalangani tarixiy haqiqat.

Shoir misralaridan ayni shu jarayonning badiiy ifodasini topganini ko'rish va anglash qiyin emas.

Yur, do'stim,
Birga sayr etaylik, o'sha, -
Samon yulduzlari bo'lsin poyandoz.
Bizni yuksaklarga yo'llagan go'sha,
Yiroqlardan boqsin xushnud sarafruz.
Ufq manglayiga durday qadalgan,
O'sha yulduzimiz yarqiroq bo'lsin.
Uning jahoniy Erk deya atalgan.

Dostonni boshdan oyoq o'qisak, asar boshida ilgari surilgan g'oyalar ketma-ketligi asar so'nggida jamlanib bitta maqsadga yo'nalganini ko'ramiz. Maqsadki, azob-uqubatlar adog'i, maqsadki, istibdod mash'ali so'nib, istiqlool bayrog'i sarbaland bo'lmog'idir. Shoir asarda tahlikali zamonlar oqimiga qarshi suzish qanchalar og'ir bo'lishiga qaramay, o'zining ko'nglidan kechgan, o'zigagina ayon bo'lgan gaplarni qog'ozda aks ettirish bilan chegaralanmay unga isyonkor ruh baxsh etgan. Buni asarni o'qigan nafaqat adabiyotshunos, balki oddiy o'quvchining ham sezishi qiyin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E. Vohidov. Saylanma. 1- tom. – T.: Sharq nashriyot matbaa konserni. 2000.
2. E. Vohidov. Ish savdosi. – T.: Sharq nashriyot matbaa konserni. 2000.
3. Xolmirzayev, Sh. O'lis yulduzlar ostida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
4. Quronov, D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademyashr, 2018.
5. Sulton, I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
6. Boboyev, T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.